

Isajon Sulton

# ABU RAYHON BERUNIY

*tarixiy-biografik roman*



Toshkent - 2022

## IKKINCHI QISM



### JURJON. ABU SAHL MASIHIY HIKOYASI

Ismim Iso, laqabim Abu Sahl, otamning ismi Yahyo, Jurjonda tavallud topganman. Iso Masih diniga e'tiqod qilaman,

Musulmon o'lkasida tug'ilgan kishi qay tarzda masihiy bo'lib qolganiga hayronmisiz? E'tiqodimning sababi – unga bo'lgan o'ta kuchli muhabbatimdir. Men Allohdan o'zga iloh yo'qligiga, hamdlar va mulklar egasi U ekaniga, Uning malaklariga, kitoblariga, rasullariga, oxirat kuniga, yaxshilik va yomonlik Uning xohishi bilan bo'lishiga va o'limdan keyin qayta tirilishga shahodat keltiraman va Muhammad alayhissalom uning rasuli ekaniga guvohlik beraman, biroq Iso binni Maryamga muhabbatim sababli, u keltirgan dindan voz kechmayman. Axir, Alloh taolo huzuridan to'g'ridan-to'g'ri ona vujudiga puflangan, insonlarga buyuk o'rnak bo'lgan unday zotni sevmay bo'ladimi? Pok ayollar malikasi Maryam onaga qanday qilib mehr qo'yayin?

Iso binni Maryam tabib edi, qo'li bilan silasa, har qanday xasta davo topar, so'qir ko'zlar ochilar, mayitlar tirilardi. Shu sababli unga Masih, ya'ni silovchi deb laqab berishdi. Otam menga shularni o'rgatdi. Ikkovimiz ham unga muhabbatimiz sababli, shu yo'lni tanladik.

Masihiy bo'lganim uchun zunnor taqib yurishim shart edi. Biroq, musulmonlarga islomni tan olishimni, ammo masihiy diniga e'tiqod qilishimni aytsam, ular meni "g'ayri mukmil", ya'ni nokomil musulmon deb atashar va o'z holimga qo'yishardi.

O'zim haqimda aytadiganlarim qisqacha shu. Zero, qolgan barcha gap-so'zlar behudalikdan iborat. Kishining kimligiga uning mahsuliga qarab baho beriladi. Odam daraxt emaski, meva bersin? U holda, uning mahsuli – bilim va hikmat ekani ochiq-ayon narsalardandir.

Hayotimning yigirma to'rtinchi yilida ikki xayrli ish sodir bo'ldi. Biri – shamsulmaoliy Qobus ibn Vushmgir Jurjon va Tabariston samosida quyoshday balqdi. Ikkinchisi – qismat meni Abu Rayhon bilan uchrashtirdi. Mansur ibn Iroq tavsiyasi bilan kelgan bu yigit mendan ikki yosh kichik bo'lib chiqdi. U mahalda Jurjonda falsafa va axloq yulduzi Abu Mansur as- Saolibiy bosh mudarris edi.

O'sha yili shamsulmaoliy Qobus ibn Vushmgir o'zining Tangri taologa itoatini va din yo'lidagi g'alabalarininamoyon qilgan bir minora barpo etish niyatida ekanima'lum qildi. Bir qancha olimlar shu vazifa ustida ishlay boshladilar. "Gumbazi Qobus" qanday shaklda, qanday yuksaklikda bo'lishi kerakligi borasida turli takliflar taqdim qilinsa ham, hukmdorga birontasi ma'qul kelmas, ziyoriyalar shonshavkatini va kuch- qudratini aks ettiradigan, mavjud imoratlarga sira o'xshamaydigan bir inshoot barpo etishni istardi.

Me'morlar Rizo, Rum va hatto mag'rib usulida chizilgan bir qancha chizmalarni Qobus ibn Vushmgirga ko'rsatishdi, biroq shohga hech biri yoqmadи.

Bu masalani Abu Rayhonga aytganimda, u o'ylanib, katta bir qog'oz so'rab oldi-da, to'g'ri qubbali, o'n qirrali minora suratini chizib:

- Istanasang, buning balandligi qancha bo'lishi kerakligini va shunga o'xhash xususiyatlarini hisoblab beraman, shundan so'ng shamsulmaoliy hazratlariga ko'rsatsang, shoyad ma'qul kelsa! – dedi.

- Nega yunon ustunlariga o'xhash shakl tanlading?

O'nta qirra – bu ziyoriyarlarning besh hukmdori va islomning besh ruknidir.

Uning bu so'zi menga ma'qul keldi.

- Ammo sening ishlapping uchun zarur shart-sharoit yo'q. Kerakli hisoblarni qilishing uchun asboblaring ham yo'q. Xo'p desang, senga alohida bir xonani jihozlab beray, qulay bo'lsin.

- To'g'ri aytasan, menga yorug' va sokin bir hujra bo'lsa, yaxshi bo'lardi, – deb javob qildi Abu Rayhon.

Xizmatkorlarga aytib, mehmonxonamni Abu Rayhon uchun ish hujrasiga aylantirib berdim. Shundan so'ng Abu Rayhon anchagacha o'sha yerdan chiqmadi. Yeguliklarni xizmatkorlar ichkariga olib kirib berishardi. Bir necha kundan so'ng qoshimga kelib, qo'lidagi qog'ozni yoyganida, barcha hisoblar tamomlanganini ko'rdim.

Abu Rayhon o'z chizmasini sharhlab berdi:

Bu o'nta qirraning barchasi doirasimon qubbaga borib ulanadi. Qirralar uch yarim quloch bo'lishi kerak. Devor uch gaz qalinlikda uriladi, unda imkon boricha yupqa, pishiq g'ishtlar ishlatiladi. Minoraning bo'yи bir yuzu oltmishe besh gaz, qubbasingning eni o'n gaz, tubining aylanasi o'ttiz to'rt, yuqorisi o'ttiz bir gaz bo'ladi. Lekin bunday og'irlilikni ko'tara oladigan va zilzila vaqtida qulab tushishiga yo'l qo'ymaydigan asos ham lozim. Shu maqsadda balandligi o'ttiz gazlik bir tepalik barpo qilinadi, minora tubi yer qa'riga kamida shuncha kirishi lozim bo'ladi.

Minora ichkarisiga "muqarna" usulida bezak ishlanib, yuqoriga bir kishi ko'tarila oladigan yonlama zina quriladi. Qubbaning qibla tomonida eni ikki gazli darcha bo'ladi, muazzin azonni o'sha darchadanaytadi.

Abu Rayhon asos uchun qancha tuproq va minora uchun qancha g'isht ketishini ham hisoblagan ekan. Meni, ayniqsa, minora qubbasi lol qoldirdi. Bu savolimga Abu Rayhon shunday javob berdi:

- Uni bizning masjidlar qubbasidey qabariq qilsang, ostdagagi qirralar shakliga mos kelmaydi va zavq uyg'otmaydi. Asos o'ttiz to'rt va uning yuqorisi o'ttiz bir gaz bo'lgani uchun, to'g'ri burchakli qubba eng maqbul yechimdir. Men buni yunon olimlarining hisoblarida ko'rgan edim, - dedi u. - Agar istasang, u yerga quyosh soatini ham qurishim mumkin. Lekin buni menga emas, al-Xo'jandiya iltimos qilganing ma'qul, chunki bu ishlarning eng mukammalini u qila oladi.

Buni qarangki, Abu Rayhonning ushbu loyihasi hukmdorga yoqib tushdi. Yo'qsa, oson ishmidi? Ziyoriyalar kuch-qudratini bosh-oyoq tamsil etib turadigan oliy inshoot haqida so'z bormoqda-ku? Qobus ibn Vushmgir olimlarga

yon bosgani va o'zi ham ayrim bilimlarda qobiliyat sohibi bo'lgani bilan, hukmdorlikda qahriqattiq va beshafqat kishi ekani ma'lumu mashhur edi.

Shundan so'ng Shamsulmaoliy meni va Abu Rayhonni huzuriga chorladi. Minora tarhi ma'qul kelganini, qu- rilishni boshlash uchun me'morlarga buyruq bergenini aytib, Abu Rayhonga va menga sovg'a-ikromiyalar berdi hamda Abu Rayhonga:

– Biz bir qancha tarixlarni o'qib, tahlil qildik, – dedi.  
– Tarix qaerdan boshlanishi kerak, degan savolga turli kishilar turlichcha javob berishadi. Hatto ayrim hukmdorlar iqtidorga kelgach, mavjud sanani o'zgartirib, o'zi taxtga o'tirgan yildan yoki tavallud topgan kunidan boshlab tarix yozishni buyurganlari ma'lum. Shu sababli, tarix Rumda bo'lak, Yunonda boshqa, Shomda yana boshqa. E'tiqodlar tarixida ham shunday chalkashliklar bor, misol uchun, masihiylar uni Iso tavalludidan boshlab hisoblashsa, yahudiylar Muso alayhissalomdan sanashadi. Ayt-chi, dunyo yaralishining muddatlari haqida ittifoqqa kelingan bir fikr bormi?

– Ha, Odam Safiulloh yaratilgan paytdan to Muhammad Alayhissalom hijratigacha olti ming ikki yuz o'n olti yil, deb ittifoq qilingan, – deb javob berdi Abu Rayhon.

– Biz bu so'zni eshitgan va dunyoning umri bor-yo'g'i shumi, deb hayron bo'lgan edik, – dedi Shamsulmaoliy.

– Sen turli mamlakatlarda qo'llaniladigan tarixlar, ularning boshlanishi va shoxobchalari, ya'ni tarix egalarining oylar va yillar ustidagi ixtiloflari va u ixtiloflarning sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va har xil yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmaydigan marosimlar haqida, imkon boricha juda ravshan bayon qilingan, o'quvchi oson fahmlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan tarzda bir risola yozishingni istaymiz. Albatta, buning uchun bir qancha asarlarni taqqoslashing va ilming yorug'ida haqni topishing kerak bo'ladi. Buning uchun zarur shart- sharoitlarni

hozirlatib beramiz. Yetarli maosh tayin qilingaydir va boshqa istaklarining bo'lsa, ular ham o'rinalatilgaydir.

Ikkimiz yer o'pib, sultonga baxtu saodat tiladik. Qobus ibn Vushmgir bizning maqtovlarimizdan mammunbo'lib:

- Har biringizga ikki qul va ikkitadan joriya hadya qilingaydir, toki xizmatningizni qilsinlar!

Abu Rayhon podshohning bu so'zlariga javoban maqtov durlarini tizib, shunday dedi:

- Siz oliv janoblarining bunday hadyangizni qabul qilmasligim mumkin emas. Biroq kaminaga ular xalal beradilar deb o'ylayman, chunki shu kungacha xizmatchi va joriya saqlamoq tugul, qornimni to'yg'azishga ham imkonim yo'q edi. Sizning bunday yuksaktuhfalariningizni izzatingiz qadar saqlab, ularni yetarli darajada avaylashga mening qurbim yetmaydi. Shu sababli, hadyangiz o'rniga boshqa bir narsa so'rashimga izn bersangiz. Mening siz istagan xizmat to'nini kiyishim uchun Rumdan va Yunonistondan bir qancha kitoblarga ettiyojim bo'ladi, u kitoblar bu tevarakdag'i biron ta hukmdor xazinasida yo'q. Agar ularni keltirishga buyruq bersangiz, ham xazinangizni boyitgan, ham mening ishlarimga yordami tekkan bo'lar edi.

- Allohga qasamki, sen biron kitobni aytsang va u yer yuzida mavjud bo'lsa, men uni, albatta, Jurjonga olib kelaman,  
- dedi Qobus ibn Vushmgir.

Tangriga hamdu sanolar bo'lsin! Taqdir Abu Rayhoni ikinchi bor nur va ziyo homysi bo'lmish sultonga ro'para qilmoqda edi. Iroq va Xuroson hukmdorlari mol-mulk talashib, qon to'kish bilan mashg'ul ekanlar, yer yuzida inson zakovatining balqishi uchun muruvvat ko'rsatuvchi sultondan yaxshiroq kim bor?

Bizlar Mag'rib qirollari kutubxonasida "Daliliya" kitobi borligini eshitgan edik. Unda falak hodisalari batafsil tadqiq qilingan va yer yuzida mavjud turli yer jinslari munosabatlari to'la yoritib berilgan ekan. Abu Rayhon ikki kun urinib, ro'yxat tayyorladi va uni Shamsulmaoliyning vaziri Marzubon ibn Rustamga topshirdi. Marzubon ibn Rustam esa

hukmdor saroyi kutubxonasining eshiklari biz uchun har doim ochiq ekanini, istagan mahalda kelib, kerakli kitoblarni olishimiz mumkinligini aytdi. Ray kutubxonasi dunyodagi eng boy kutubxonalardan biri bo'lib, undan foydalanish – mamlakat xazinasidan foydalanishdan ortiq bo'lsa ortiqski, sira kam emas edi.

